4.2. Illokutiv effekt omillari (frazeologik birliklarning nutqda tinglovchi yoki o‘quvchiga ko‘rsatadigan ruhiy va baholovchi ta’sirini kuchaytiruvchi omillar). Frazeologik birliklarning nutqda kuchli ta’sir ko‘rsatishi, ya’ni, ular tinglovchi yoki o‘quvchiga qanday ruhiy va ma’naviy ta’sir qilishi, bir nechta o‘zaro bog‘liq omillar orqali yuzaga keladi.

Birinchidan, obraz-asos muhim rol o‘ynaydi. “Og‘riq”, “savdo”, “poklik” kabi metaforik asoslar vijdon bilan bog‘liq iboralarga kuchli hissiy rang beradi. Masalan, *clear conscience* iborasi nafaqat aybsizlikni, balki ichki yengillik va ruhiy tinchlikni ham anglatadi. Obraz qanchalik jonli bo‘lsa, frazeologik birlikning ta’siri shunchalik kuchli bo‘ladi.

Ikkinchidan, kontekst hal qiluvchi omil hisoblanadi. Bir xil ibora turli matnlarda turlicha illokutiv vazifa bajarishi mumkin. Masalan, *guilty conscience* iborasi bir kontekstda personajga nisbatan achinish uyg‘otsa, boshqa vaziyatda uni fosh etish yoki tanqid qilish vositasiga aylanadi. Muallifning munosabati, syujet vaziyati va personajning roli frazeologik birlikning pragmatik yuklamasini belgilaydi.

Uchinchidan, aksiologik baho (ya’ni, ijobiy yoki salbiy qadriyatga asoslangan baholash) muhim ahamiyatga ega. *Clear, easy, slightest* kabi modifikatorlar bahoni kuchaytiradi yoki keskinlashtiradi. Masalan, *without the slightest prick of conscience* iborasida *slightest* so‘zi vijdonsizlik darajasini maksimal darajada oshirib, salbiy bahoni kuchaytiradi.

To‘rtinchidan, stilistik vositalar frazeologik birliklarning ta’sirini oshiradi. Qarama-qarshilik, kinoya, mubolag‘a kabi usullar orqali muallif vijdon bilan bog‘liq obrazni yanada ta’sirchan qiladi. Shunday qilib, bunday birliklarni to‘liq talqin qilish uchun faqat lug‘aviy ma’noga tayanish yetarli emas, nutq vaziyati, madaniy fon va ekstralingvistik bilimlar ham muhim rol o‘ynaydi.

5. Xulosa. Tarkibida *conscience* leksemasi mavjud frazeologik birliklar ingliz tilida vijdon tushunchasini eng aniq va markaziy shaklda ifodalaydi. Ular orqali vijdon turli jihatlarda namoyon bo‘ladi: bir tomondan, u ichki azob va pushaymonlik manbai sifatida tasvirlanadi, boshqa tomondan, vijdonsizlik va axloqiy tanazzul belgisi sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, vijdon shaxsning ichki nazorati va mas’uliyat mezoni sifatida ham, poklik va ruhiy xotirjamlik ramzi sifatida ham talqin qilinadi. Ayrim birliklarda esa u jamiyat tomonidan talab qilinadigan axloqiy mezon sifatida ko‘rsatiladi. Natijada ingliz tilidagi *conscience* leksemali frazeologizmlar vijdon konseptini ko‘p qatlamli – tushunchaviy, obrazli va baholovchi – tuzilma sifatida ochib beradi. Ular vijdonni inson ichidagi “ichki hakam”, “nazorat qiluvchi” va “jazolovchi” kuch sifatida konseptualizatsiya qilishga xizmat qiladi hamda ijobiy va salbiy qadriyatlar o‘rtasidagi ichki kurashni til vositasida yaqqol ifodalaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Алексеев П.В. Философия. Учебник, Алексеев, А.В.Панин. М., ТК Велби, изд-во “Проспект”, 2003, 608 с.

(2). Алефиренко Н.Ф. Современные проблемы науки о языке. Учебное пособие, М., “Флинта: Наука”, 2005, 416 с.

(3). Бабушкин А.П. Типы концептов в лексико-фразеологической семантике языка. Воронеж, изд-во Воронеж. гос. ун-та, 1996, 104 с.

(4). Dobrovolskij D., Piirainen E. Figurative language: Cross-cultural and cross-linguistic perspectives (2nd ed.). De Gruyter Mouton, 2022.

(6). Lakoff G. Women, fire, and dangerous things. What categories reveal about the mind. University of Chicago Press, 1987.

(7). Barker C. Books of Blood. “Эксмо, Домино”, 2008, p. 432.

(8). Baum L.F. The Marvelous Land of Oz, Сибирское университетское издательство, 2007, p. 208.

(9). Bierce A. Epigrams, on with the Dance; Nibble Tales. GORDIAN PRESS, 1966, p. 270.

(10). Butler S. Way of All Flesh. Ладомир. “Наука”, 2009, p. 464.

(11). Buchan J. The Thirty-nine Steps, Wordsworth Editions Limited, 1996, p. 112.

(12). Carter D. Tomorrow is with Us [Electronic resource]. Режим доступа: http://www.rosinstrument.com, свободный.

Jovbo‘riyeva Umidabonu Tohirovna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti Filologiya va san’at fakulteti 231-amaliy filologiya guruhi talabasi; E-mail: ujovboriyeva@gmail.com)

SURXON VOHASI SHOIRLARINING “VATAN” KONSEPTLI SHE’RLARIDA TOPONIMLAR LINGVOPOETIKASI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada she’riyatda “Vatan” konseptli toponimlar lingvopoetikasi onomastik tahlil metodlari yordamida Surxon vohasining o‘zbek she’riyatida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan shoirlaridan Usmon A’zim, Sirojiddin Sayyid, Eshqobil Shukur kabi mahoratli shoirlarining Vatanni madh etuvchi she’rlari asosida tahlil qilinadi.*

Kalit so‘zlar: *onomastika, toponimika, gidronim, oronim, oykonim, konsept, metod, tasviriy, qiyosiy – chog‘ishtirma, tarixiy.*

Джовбориева Умидабону Тохировна (студентка факультета филологии и искусств Ургенчского государственного университета имени Абу Райхона Беруни, 231-группа прикладной филологии; e-mail: ujovboriyeva@gmail.com)

ЛИНГВОПОЭТИКА ТОПОНИМОВ В КОНЦЕПТУАЛЬНЫХ СТИХОТВОРЕНИЯХ ПОЭТОВ СУРХАНСКОГО ОАЗИСА НА ТЕМУ “РОДИНА”

Аннотация. *В данной статье анализируется лингвопоэтика топонимов с понятием «Родина» в поэзии с использованием методов ономастического анализа, основанных на стихотворениях, воспевающих Родину, таких талантливых поэтов Сурханского оазиса, как Усман Азим, Сироджиддин Сайид и Эшкобил Шукур, занявших свое место в узбекской поэзии.*

Ключевые слова: *ономастика, топонимия, гидроним, ороним, икононим, концепт, метод, описательный, сравнительный-сравнительный, исторический.*

Jovboriyeva Umidabonu Tokhirovna (Student of the Faculty of Philology and Arts, Urgench State University named after Abu Rayhon Beruni, 231-Applied Philology Group; E-mail: ujovboriyeva@gmail.com)

LINGUOPOETICS OF TOPONYMS IN THE CONCEPTUAL POEMS OF THE POETS OF THE SURKHAN OASIS WITH THE THEME “HOMELAND”

Annotation. *This article analyzes the linguopoetics of toponyms with the concept of "Homeland" in poetry using onomastic analysis methods based on the poems praising the Homeland by such talented poets of the Surkhan oasis as Usman A'zim, Sirojiddin Sayyid, and Eshqobil Shukur, who have taken their place in Uzbek poetry.*

Keywords: *onomastics, toponymy, hydronym, oronym, icononym, concept, method, descriptive, comparative-comparative, historical.*

Kirish. Tilimizda o‘tgan asrning 60-yillarida onomastika sohasi rivojlandi. Bu sohaning rivojlanishida tilshunos olim E.Begmatovning xizmati kattadir. Onomastika fani doirasida antroponim, toponim, gidronim, teonim, zoonim kabi makro va mikrokо‘lamlar tadqiq etiladi.

Ushbu yo‘nalishlar ichida eng ko‘p tadqiq etilgan yo‘nalish sifatida antroponimikadan so‘ng, albatta, toponimika turadi. Toponimika (yunoncha topos–joy, onoma–nom) geografik nomlarni o‘rganuvchi tilshunoslik va geografiya fanlari tutashgan sohadir [7;92-b].

O‘zbek she’riyatining bosh mavzusi hisoblanmish “Vatan” konsepti shoirlar ijodida rang-barang poetik vositalar orqali tasvirlanadi. Xususan, “Vatan” konseptini aks ettirishda toponimlarning alohida o‘rni mavjuddir. Toponimlarning she’riyatda qo‘llanishi faqatgina obyektiv geografik makonni emas, balki shoirning tarixiy xotirasi, ruhiyati, milliy o‘zligini tasvirlovchi semantik obrazga aylanadi. Quyida Surxon vohasi shoirlari ijodida “Vatan” konseptli toponimlarning o‘ziga xos xususiyatlarini o‘rganib chiqamiz.

Adabiyotlar tahlili. Toponimikani o‘rganish jarayonida, avvalo, taniqli geograf olim H.Hasanovning “O‘rta Osiyo joy nomlari tarixidan” nomli monografiyasi alohida o‘rin tutadi. Shu bilan birgalikda, T. Nafasov, S.Qorayev, Z.Do‘simov, B.O‘rinboyev, T.Rahmatov, J.Latipov, T.Enazarov, N.Oxunov, S. Nayimov kabi olimlarning sa’y-harakatlari bilan Xorazm, Qashqadaryo, Buxoro, Surxondaryo, Jizzax, Toshkent, Farg‘ona, Samarqand, qolaversa, vatanimizning barcha hududlaridagi toponimlar to‘plandi, ularning lisoniy xususiyatlari, tarixi, etimologiyasiga oid muhim ilmiy kuzatishlar amalga oshirildi.

S.Qorayevning “Toponimika – joy nomlari haqidagi fan” (1980), E.Begmatovning “Joy nomlari – ma’naviyat ko‘zgusi” (1998), T.Nafasovning “O‘zbek nomnomasi” (1993), Z.Do‘simov va M.Tillayevalarning “Joy nomlarining siri” (2001), “Toponimika asoslari” (2002) kabi bir qator ishlar toponimiyaning shakllanishi va rivojlanishida alohida ahamiyat kasb etadi [7;17-b.].

XX arning birinchi yarmida Rus tilshunosligida faylasuf S.Askaldov tomonida “konsept” tushunchasi kirib keldi. Bu tushuncha turli millat vakillari muloqotiga sabab bo‘lishi mumkin bo‘lgan kommunikativ jarayon sifatida baholandi [2;52-b.]. O‘zbek tilshunos olimi Sh.Safarovning “Kognitiv tilshunoslik” nomli risolasida konsept haqida shunday fikr berib o‘tilgan: “Dastlabki o‘rinda konseptning lisoniy moddiylashuvi ong va til tizimi o‘rtasidagi hamkorlikning mahsuli ekanligini unutmaslik kerak. Konsept shakllanishining boshlang‘ich nuqtasi voqelik bo‘lagi (predmet) haqidagi tasavvur – obrazning yuzaga kelishidir” [1; 21-b.].

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada onomastik material tahlilida qo‘llaniladigan metodlardan foydalanib tadqiq etildi. Keltirilgan toponimik birliklarning tarixi, arxeologiyasi va etnografiyasi jihatdan tarixiy metodda, bir xil shaklga ega bo‘lgan birlikning turli she’riy to‘plamlarda qo‘llanishiga ko‘ra qiyosiy-chog‘ishtirma usulida hamda toponimlarni o‘rganishda kontekstual tahlil usuli orqali joy nomlarining she’rdagi qo‘shimcha semantik qatlamlari ochib berildi. Shu bilan birgalikda, ayrim birliklarni tasviriy metod orqali tadqiq etishga erishildi. Ushbu metodlar keltirilgan parchalarda “Vatan” konseptining toponimik xaritasini yoritish imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari. Surxon vohasi shoirlarining she'rlarida berilgan toponimlarning konseptini tahlil qilar ekanmiz, albatta, Surxon toponimiga to'xtalib o'tamiz. Quyida Sirojiddin Sayyidning "Uyingdagi beshiklar" nomli she'riy to'plamida berilgan Surxon toponimini tahlil qilamiz [8;7-b.].

Havodagi jivir-jivir to'rg'aylar,
Yana ming yil shu alfozda turgaylar.
Ko'nglim bo'lib alar seni ko'rgaylar,
Yulduz uchsa bunda kuygan kuragim
Surxon desam, zirqiraydi yuragim.

"Surxon qo'shig'i" deb nomlanuvchi ushbu she'rni shoir Erkin A'zamga bag'ishlab yozgan. She'rda keltirilgan Surxon toponimi o'lkamizning janubida joylashgan Surxondaryo viloyati nomining qisqargan shakli hisoblanadi. Surxondaryo–O'zbekiston janubidagi daryo (qadimda–Chaganrud). Ehtimol, daryo, dastlab, Surxob deb nomlangan ("qizil daryo") va vaqt o'tishi bilan Surxondaryoga o'zgargan [3:446–44-b.7].

Surxondaryo shoirning tug'ilib, o'sgan maskanidir. Bilamizki, shoirlar ba'zan qalbidagi vatanga bo'lgan muhabbatini jilokor she'rlari orqali ifodalaydi. Shoir Surxon toponimini vataniga bo'lgan sog'inchini ifoda etish va mangulik, barhayotlilik konseptini ifodalash uchun berib o'tgan.

Surxon vohasi she'riyatida ko'p-ko'p takrorlanib keluvchi Boysun toponimi tahliliga to'xtalsak.

Boysun qirlarida bir o'zim kezdim.
Kuz edi. Daralar tumanni quchgan.
Avval eshitgandim, ushbu dam sezdim –
Mening bir do'stimning chirog'i o'chgan. [10;294-b.]

Ushbu she'riy parcha Usmon A'zimning "Yurak" nomli she'riy to'plamida berilgan "Boysun qirlarida..." nomli she'rdan olingan bo'lib, shoir do'sti Qayumga bag'ishlab yozgan. Boysun toponimi orqali shoir do'stisiz Boysun tog'larini yayov kezib, usiz hayoti misoli kuzga aylangani, atrofni boysunning yashilliklari emas, tumanliklar qoplaganini tasvirlab bergan.

Toponimni tadqiq etadigan bo'lsak, Boysun Surxondaryo viloyatida joylashgan tumanlardan birining nomidir. "Boysun" atamasi qadimiy turkiycha "boy" va "sin"dan olinib, "ulug' tog'" yoxud "katta tog'" ma'nosini ifodalagan. V.V.Verbitskiyning XIX asr oxirida tuzgan lug'atida ham "sin" so'zi orfografik obyekt ifodalashi qayd qilingan [3;75-b.].

Daholar manglayin yarqiratgan oy,
Fidolar bag'ridan silqigan bardosh.
Tangri yer yuziga yo'llagan humoy,
Bobotog' bag'rida tug'ilgan quyosh. [9;151-b.]

Yuqoridagi she'riy parcha shoir Eshqobil Shukur she'riyatidan olingan. She'rda toponimlarning yana bir turini, ya'ni oronimlarni ko'rishimiz mumkin. Oronim (yunoncha oros – tog') – yer yuzasining relyef shakllari – tog', cho'qqi, qir, jarlarga atab qo'yiladigan nomlar [7;91-b.]. Bobotog' Surxondaryodagi tog', qishloq. Xalq nutqida bobo katta, ulkan, ulug', buyuk, muqaddas. Tog' kulti asosida nomlangan: ulug' tog', katta tog', muqaddas tog'; eng baland cho'qqili tog' [4;15-b.]. Bobotog' nomi qo'shma tarkibli oronim hisoblanadi. Bobo+tog' qo'shilmasidan tarkib topadi.

Bobotog'–ulug' siymolar, olimlar va daholarni voyaga yetkazgan muqaddas zamin timsoli misolida gavdalantirilgan. "Bobotog' bag'rida tug'ilgan quyosh" iborasi shu yurtda tug'ilgan, voyaga yetgan buyuk shaxslarning nuridek butun olamga ziyo sochishi konseptini yaratishga zamin bo'lgandir.

Umrimni hadya etarga, xayriyat el bordir,
Jon berarga Sir – Amu o'rtasida yer bordir.
O'lsam arzir, qolsam arzir – qalbimda erk bordir,
Benajot shiddatni topdim – oqibat gap shunda. [11;157-b.]

Usmon A'zimning "Saylanma"sidan olingan ushbu parchada Sirdaryo va Amudaryo gidronimlari berib o'tilgan. Toponimlarning yana bir turi gidronim hisoblanadi. Gidronim (yunoncha – hudor – suv + onoma – atoqli ot) – suvlikdagi har qanday (tabiiy va sun'iy) obyektlarning (okeonim, pelagonim, limnonim, potamonim, gelonim) atoqli ot. Toponim turi [5;25-b.].

Ushbu she'riy misrada anglashilgan konsept shundan iboratki, shoir Sirdaryo va Amudaryo o'rtasidagi hudud, ya'ni, Movarounnahr – bu shoir uchun muqaddas Vatan timsoli hisoblanadi. Demak, ushbu ikki gidronimik birliklar orqali Vatan konsepti jonlantirib berilgan.

Amudaryo–qadimiy eroniy nomi Vaxsh (Vaxshob) bo'lgan. Daryoning yirik irmoqlaridan biri hozir ham Vaxsh deb ataladi. Professor H.Hasanov ma'lumotlariga qaraganda, Pokistonda Amudaryoning hozirgi nomi O'rta Osiyoda Vaxsh, Vaxshivar, Vaxshivardara degan bir nechta joylar bor. Mahmud Koshg'ariyda har qanday sokin, barqaroq, turg'un narsaning amul deyilishini aytib o'tish mumkin [6;42–43-b.].

Sirdaryo–nomlari ham ko‘p bo‘lgan daryo. Daryo nomi Sir, ya’ni, “rang” bo‘yoq.“Sariq daryo” loyqa suvli daryo), “Serob” (Sersuv “Sirtdaryo” (tog‘ sirtlaridan, tepalaridan oqib keladigan daryo) degan ma’noni bildiradi [6;43-b.].

Xulosalar. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, toponimlarda xalqning o‘tmishi, ma’lum bir hududning kelib chiqishi, hududga mos va xos bo‘lgan an’ana va urf-odatlar, siyosiy-ijtimoiy jarayonlar hamda xalqning etnomadaniy o‘ziga xosliklari o‘z aksini topadi.

Toponimlarni o‘rganish nafaqat tilda yangi so‘zlarni o‘rganishga emas, balki muayyan biror til leksikografiyasining boyib borishiga ham xizmat qiladi.

Jahon tilshunos olimlaridan V.V.Kolesov konseptga ta’rifni berishda unda badiiylik xususiyatlari mavjudligi, adabiyotga xos bo‘lgan terminlarning aks etishini hisobga oladi: “konsept – o‘zining mazmundor shaklida – obraz, tushuncha va ramzda namoyon bo‘lgan tushuncha mohiyati” [2;53-b.].

Demak, onomastik birliklar, xususan, tadqiq etganimiz toponimlar, oykonimlar, oronim va gidronimlar, o‘z navbatida, badiiylilikni, obrazlilikni va shoirning o‘z she’rida o‘quvchiga qanday fikrni ifoda etishiga ko‘maklashuvchi muhim birliklar ekanligiga guvoh bo‘lamiz.

Yuqorida ko‘rib o‘tdikki, ayni bir nom turli xil konseptni ifoda etmoqda: sog‘inch, ayriliq, shodlik, abadiylik, fidokoronalik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

(1). Safarov Sh. Kognitiv tilshunoslik. Jizzax, “Sangzor”, 2006, 92-bet.

(2). Anorqulova O. Konsept tushunchasi va uning o‘zbek tilshunosligidagi tadqiqiga doir mulohazalar. 2022.

(3). O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati [matn]. Tuzuvchilar R.Y.Xudoyberganov [va boshqalar]. Toshkent, “Donishmand ziyosi”, 2022, 624-bet.

(4). T.Nafasov, V.Nafasova. O‘zbek tili toponimlarining o‘quv izohli lug‘ati. T., “Yangi asr avlodi”, 2007, 88-bet.

(5). Begmatov E., Uluqov N. O‘zbek onomastikasi terminlarining izohli lug‘ati. Namangan, 2006, 103-bet.

(6). Ravshanov D.T. Shafoat Rahmatullo. Termiziy she’riyati onomastikasi. Filologiya fan. nom. diss., Termiz, 2023.

(7). Urganch davlat universiteti. “O‘zbek filologiyasi” kafedrasi. Onomastika fanidan o‘quv-uslubiy majmua, Urganch, 2022, 92-bet.

(8). Sirojiddin Sayyid. Uyingdagi beshiklar. Toshkent, “Yozuvchi” nashriyoti, 1996, 26-bet.

(9). Eshqobil Shukur. Hamal ayvoni. Toshkent, “Sharq”, 2002, 167-bet.

(10). Usmon A’zim. Yurak. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2009, 325-bet.

(11). Usmon A’zim. Saylanma. Toshkent, “Sharq”, 1995, 282-bet.

(12). https://ziyonet.uz/ru

Rustamova Shaxnoza Abduraximovna (Toshkent davlat Transport universiteti dotsenti; https://orcid.org/0000-0001-6038-1181; shahnoza.rustamova.1983@gmail.com)

TARJIMADA FUNKSIONAL USLUB VA STILISTIK TRANSFORMATSIYA MUAMMOLARI

Annotatsiya. *Mazkur maqolada tarjima jarayonida funksional uslubni saqlash va stilistik transformatsiya muammolari zamonaviy lingvistik yondashuvlar asosida tahlil qilinib, tarjimaning ekvivalentlik, adekvatlik, pragmatik moslashuv va madaniy adaptatsiya kabi asosiy kategoriyalari funksional uslub bilan uzviy bog‘liqlikda ko‘rib chiqiladi. Ingliz–o‘zbek hamda rus-o‘zbek tarjimalari materiallari asosida leksik-semantik, sintaktik va pragmatik transformatsiyalarning uslubiy natijalari aniqlanadi. Xalqaro tarjimashunoslik nazariyalari o‘zbek olimlarining ilmiy qarashlari bilan qiyosiy tahlil qilinib, stilistik adekvatlik tushunchasining mazmuni kengaytiriladi.*

Kalit so‘zlar: *tarjima nazariyasi, funksional uslub, stilistik transformatsiya, ekvivalentlik, adekvatlik, pragmatik moslashuv, diskurs, milliy-estetik tafakkur.*

Рустамова Шахноза Абдурахимовна (Ташкентский государственный транспортный университет, доцент; https://orcid.org/0000-0001-6038-1181; shahnoza.rustamova.1983@gmail.com)

ПРОБЛЕМЫ СОХРАНЕНИЯ ФУНКЦИОНАЛЬНОГО СТИЛЯ И СТИЛИСТИЧЕСКИХ ТРАНСФОРМАЦИЙ В ПЕРЕВОДЕ

Аннотация. *В данной статье проблемы сохранения функционального стиля и стилистических трансформаций в процессе перевода анализируются на основе современных лингвистических подходов. Основные категории теории перевода–таки, как эквивалентность, адекватность, прагматическая адаптация и культурная адаптация–рассматриваются в тесной взаимосвязи с функциональным стилем. На материале англо-узбекских и русско-узбекских переводов выявляются стилистические результаты лексико-семантических, синтаксических и прагматических трансформаций. Международные теории переводоведения сопоставляются с научными взглядами узбекских ученых, что позволяет расширить содержание понятия стилистической адекватности.*